

LITERARY INTERPRETATION OF ECOLOGICAL PROBLEMS

Pardayeva Farangiz

Scientific supervisor: Namazova Manzura Urakovna
PhD, Associate Professor, Shahrizabz State Pedagogical Institute

Annotation: Nowadays, environmental problems are among the most urgent issues facing humanity. Environmental pollution causes serious dangers not only to nature but also to human life. Literature is the mirror of society. Authors and poets have reflected environmental issues in their own ways, drawing public attention to these problems and encouraging society to protect nature.

Keywords: environmental problems, literary interpretation, environment, pollution, nature protection, human-nature relationship, ecological awareness, literature and society, ecological culture, writers' and poets' position, ecological responsibility, sustainable development, ecological crisis, artistic expression.

Annotatsiya: Bugungi kunda ekologik muammolar insoniyat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir. Atrof-muhitning ifloslanishi tabiat bilan birgalikda insoniyat hayoti uchun ham xavf solmoqda. Adabiyot jamiyatning ko'zgidir. Yozuvchilar, shoirlar o'z asarlarida ekologik muammolarni ham o'ziga xos tarzda yoritgan va shu orqali jamoatchilik etiborini qaratishga va tabiatni asrashga undagan.

Kalit so'zlar: ekologik muammolar, adabiy talqin, atrof-muhit, ifloslanish, tabiatni asrash, inson va tabiat munosabati, ekologik ong, adabiyot va jamiyat, ekologik madaniyat, yozuvchi va shoirlarning pozitsiyasi, ekologik mas'uliyat, barqaror rivojlanish, ekologik inqiroz, badiiy ifoda.

Аннотация. В наше время экологические проблемы являются одной из самых актуальных задач, стоящих перед человечеством. Загрязнение окружающей среды угрожает не только природе, но и жизни человека. Литература — это зеркало общества. Писатели и поэты в своих произведениях по-своему освещали экологические проблемы и тем самым привлекали внимание общественности, призывая беречь природу.


Ключевые слова: экологические проблемы, литературная интерпретация, окружающая среда, загрязнение, охрана природы, взаимоотношение человека и природы, экологическое сознание, литература и общество, экологическая культура, позиция писателей и поэтов, экологическая ответственность, устойчивое развитие, экологический кризис, художественное выражение.

Ekologik muammolarning adabiyotdagi talqini jahon miqyosida keng tadqiq etilgan. G'arb adabiyotshunosligida ekologik muammolarni tahlil qiluvchi alohida yo'nalish — eko-adabiyotshunoslik (ecocriticism) shakllangan. Ushbu yo'nalishning asoschilaridan Cheryll Glotfelty va Harold Frommning "The Ecocriticism Reader" (1996) asari ekologik muammolarni badiiy tahlil qilishda nazariy asos bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, Lawrence Buell "The Environmental Imagination" (1995) kitobida tabiat tasviri va ekologik ongning adabiyotdagi o'rini ilmiy asoslab bergan. Amerika olimasi Rachel Carsonning "Silent Spring"

(1962) asari ham ekologik ongni keng jamoatchilikka olib kirishda va adabiyotda ekologik muammolarni yoritishda katta ta'sir ko'rsatgan.

O'zbekistonda ekologik mavzular asosan Orol dengizi fojiasi, cho'llanish, suv resurslari tanqisligi kabi dolzarb masalalar bilan bog'liq holda adabiyotda yoritilgan va adabiyotshunoslar tomonidan tahlil qilingan. Erkin Vohidov, O'tkir Hoshimov, Abdulla Oripov ijodida tabiat va inson munosabatlari, ekologik mas'uliyat masalalari o'ziga xos badiiy talqinda aks etadi. Mustaqillik davrida ekologik muammolarning adabiy ifodasi yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlardan M. Ahmadjonov ("Ekologiya va adabiyot", 2018), N. Jo'rayev, S. Sodiqova, D. Yo'ldosheva kabi adabiyotshunoslarni keltirish mumkin. Ularning ishlarida ekologik muammolarning badiiy tasviri, ekologik madaniyatni shakllantirishdagi adabiyotning o'rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

1-diagramma



Yuqoridagi statistikadan kelib chiqsak, ekologik muammolarning adabiyotdagi talqini jahon adabiyotshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab izchil o'rganila boshlagan. 1960–1980-yillar oralig'ida mazkur masalaga oid tadqiqotlar soni nisbatan kam bo'lgan bo'lsa-da, ekologik ongning shakllanishi, atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq global tashvishlarning kuchayishi natijasida 1980–2000-yillarda bu ko'rsatkich sezilarli darajada ortgan. Ayniqsa, 2000-yildan keyingi davrda ekologik adabiyotshunoslik (ecocriticism) mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib, tadqiqotlar soni keskin ko'paygan.

O'zbekistonda esa ekologik muammolar masalasining adabiyotdagi yoritilishi asosan mustaqillikdan so'ng ilmiy izlanishlar markaziga chiqdi. 1960–1980-yillarda mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar deyarli uchramagan bo'lsa, 2000-yildan keyingi davrda, xususan, Orol dengizi fojiasi va ekologik inqirozlar bilan bog'liq mavzular tadqiqotchilar e'tiborini torta boshladi. Statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, 2010-yildan so'ng O'zbekistonda ekologik

muammolarni badiiy talqin asosida o'rganishga qiziqish ortib, so'nggi yillarda mazkur yo'nalishda mustaqil ilmiy ishlar soni ko'payib bormoqda.

Demak, jahon va o'zbek adabiyotshunosligida ekologik muammolarning adabiy talqini yetarli darajada o'rganilgan bo'lsa-da, bu boradagi tadqiqotlar hali ham davom etmoqda va yangi adabiy manbalar asosida kengayib bormoqda.

Adabiyotning ilk davrlaridan tabiat inson hayotining ajralmas qismi sifatida tasvirlangan. Dastlabki asarlarda tabiat go'zallik, tozalik, sirli kuch manbai sifatida tasvirlangan. Biroq, sanoat inqilobi va texnika taraqqiyoti tufayli tabiatga bo'lgan munosabat o'zgarib boshladi. Inson tabiatni faqatgina resurs manbai sifatida ko'ra boshladi. Aynan shu davrdan boshlab adabiyotda tabiatning ifloslanishi, uning yo'q qilinishi bilan bog'liq motivlar paydo bo'la boshladi. Asarlarda tabiatga qaytish, uni asrash va muhofaza qilish kabi go'yalar ilgari surildi. Bir qancha yozuvchilar o'z asarlarida tabiatni muhofaza qilish va ekologik muammolarni atroflicha yoritib o'tgan, bunga misol qilib Rey Bredberining 1953-yilda yozilgan "Farengeyt bo'yicha 451 daraja" asarida texnologik taraqqiyotning salbiy oqibatlari, atrof muhitga solayotgan xavfi bo'yicha ogohlantiradi ya'ni XXI asr inqilobi haqida yozadi. Gabriel Garsia Marquesning "Yolg'izlikning yuz yili" asarida ham tabiatga zarar yetkazish, uning buzilishi va insonning atrof-muhitga ta'siri bilan bog'liq syujetlar uchraydi. Bundan tashqari o'zbek yozuvchilari tomonidan yozilgan asarlarda ham tabiat bilan bog'liq muammolar o'ziga xos tarzda yoritilgan asarlar mavjud. Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asarida Mirzacho'l dehqonlarining tabiat bilan bog'liq muammolari aks etadi. Bu asarda yog'ingarchilikning kamligi tufayli qurqo'qchilik kelganligi, bu esa hosilsizlikni keltirib chiqarganligi aks ettiriladi. Yog'in yog'masligi suvsizlikni keltirib chiqaradi, suvsizlik bilamizki tabiatga hamda insoniyatga ham ko'pgina muammolar keltirishi shu asarda dehqonlar misolida yoritib berilgan. Yana bir o'zbek yozuvchisi Murod Muhammad Do'st ham o'zining "Cho'lni bezagan odamlar" to'plamidagi hikoyalarida Orol dengizining qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarni yoritib bergan. Orolning qurishi natijasida tuz va chang bo'ronlari, yerlarning sho'rlanishi, ichimlik suvining tanqisligi, o'simlik va hayvonot dunyosining yo'q bo'lib ketishi kabi holatlar tasvirlangan. Bu holatlar faqatgina hayvonlar va o'simliklarga emas, balki asar qahramonlarining sog'lig'iga, iqtisodiy ahvoliga va kundalik hayotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatgani yoritib berilgan. Balchiqlangan qayiq, quruq dengiz tubi, tuz bosgan yerlarning barchasi fojia manzarasini jonlantirgan. Bundan tashqari Orol fojiasi ortidan yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozlar ham tasvirlangan, ya'ni asosan baliqchilik bilan shug'ullangan aholining ishsiz qolishi, kambag'allikning kuchayishi, aholining o'z vatanini tashlab ketishi kabi holatlar yoritib berilgan. Bu asarni uqigach, orol fojiasi insonning tabiatga noo'rin aralashuvi oqibatida yuzaga kelgan ulkan xato sifatida ko'rishimiz mumkin. Bu kabi tabiat bilan bog'liq muammolar Erkin A'zamning "Javob" hikoyasida ham atroflicha yoritib berilgan. Bu hikoyada qishloq ahli daraxtlarni kesishi va qishlog'ining tabiatiga beparvo bo'lishi aks ettirilgan. Bu holat qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi haqida o'ylab ham ko'rishmagan. Daraxtlarni kesish nafaqat o'simliklar kamayishiga balki atrof-muhitning ifloslanishiga ham olib keladi, bilamizki havoning tozaligi daraxt va o'simliklarga bog'liq, agarda yer yuzida daraxtlar kamayib ketsa insoniyat uchun katta talofat keltirishi aniq faktidir. Hikoyada qahramonlar tabiatga nisbatan yomon munosabatda bo'lganligi tufayli ko'p yillar mobaynida vijdon azobida qiynalganligi tasvirlangan. Erkin A'zam insonlarning ichki kechinmalari ruhiyati orqali tabiat insoniyat uchun qanchalar muhimligini ochib bergan deyishimiz mumkin. Erkin A'zamning 2003-yilda yozilgan "Tanho qayiq" asarini mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasining Orol fojiasiga bag'ishlangan eng yorqin namuna sifatida

ko'rsatsak bo'ladi. Bu asarning markazida Orol dengizining qurishi bilan bog'liq ekologik va ijtimoiy – axloqiy muammolar turadi. Bu asarni barchamiz Orol bobo obrazi orqali eslaymiz, Orol dengizi yuzlab chaqirim nariga ketib qolgan bo'lsada, Orol bobo bir kunmas – bir kun uning suvga to'lishiga ishonadi. Asarda katta ekologik muammolardan biri Orolqum cho'lining paydo bo'lishi tasvirlangan. Dengiz o'rnida ulkan sho'rlangan cho'l paydo bo'ladi. Bu cho'ldan ko'tarilayotgan chang – tuz bo'ronlari havoni ifloslantirib, aholi sog'lig'igaham jiddiy zarar yetkazadi. Bundan tashqari dengiz bo'yida yashovchi suv qushlari, hayvonlar va dengiz jonzoqlarining yuqolishi, butun ekotizmning buzilishi yaqqol tasvirlangan. Dengiz tubidan ko'tarilayotgan tuz va zaharli moddalar shamol orqali atrofga tarqalib havoni ifloslantirishi tufayli dengiz yaqinida yashovchi aholining ko'p qismi ko'chib ketishiga sabab bo'ladi. Bu asarda Orol dengizining qurishi natijasida mintaqaviy iqlimga ham ta'sir qilganligi tasvirlangan, ya'ni yozlar yanada issiq, qish esa sovuqroq va shamolli bo'lishi aytilgan. Bunga sabab odamlarning tabiatni asramasligi, befarqligidir. Yana XXI asr texnologik taraqqiyot davri bo'lganligi uchun ham ekologik muammolar kelib chiqmoqda. Erkin A'zamning “Tanho qayiq” asari asosida “O'zbekkino” Milliy agentligi tomonidan badiiy film ham suratga olingan.

Bugungi kunda ekologik muammolar global miqyosda insoniyat hayotiga tahdid solayotgan eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Atrof-muhitning ifloslanishi, ekologik inqiroz, tabiiy resurslarning kamayishi nafaqat tabiatga, balki jamiyat taraqqiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli ekologik muammolar masalasi fan, texnika, siyosat bilan bir qatorda adabiyotda ham muhim mavzuga aylangan.

Adabiyot jamiyat hayotining ko'zgusi sifatida ekologik masalalarni yoritishda beqiyos rol o'ynaydi. Yozuvchi va shoirlar badiiy obrazlar orqali tabiatning qadr-qimmatini, inson va tabiat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, uni asrash zarurati haqida o'z qarashlarini ifoda etganlar.

O'zbek adabiyotida ham ekologik mavzular alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, Erkin Vohidovning she'rlari, O'tkir Hoshimov asarlarida inson qalbi va tabiat uyg'unligi, uning ifloslanishidan kelib chiqadigan oqibatlar badiiy yoritilgan. Shuningdek, Cho'lpon, G'afur G'ulom kabi ijodkorlar ham tabiatni madh etish orqali uni asrash g'oyasini ilgari surganlar. Mustaqillik davri ijodkorlari asarlarida esa ekologik inqiroz, Orol muammosi, suv resurslari tanqisligi kabi dolzarb masalalar badiiy tarzda aks ettirilmoqda.

Jahon adabiyotida ham ekologik muammolar keng yoritilgan. Masalan, Ernest Xeminguey asarlarida tabiat va inson ruhiyati bir-biriga uyg'un holda tasvirlanadi. Rachel Carsonning mashhur “Silent Spring” (“Jim bahor”) asari ekologik ongini shakllantirishda muhim rol o'ynagan bo'lsa, ingliz shoiri Ted Hughes tabiatning buzilishi va insoniyatning mas'uliyatsizligi haqida keskin ogohlantirgan.

Adabiyotning bu boradagi asosiy vazifasi – ekologik ongini shakllantirish, jamiyatda ekologik madaniyatni rivojlantirish va insoniyatni tabiatni asrashga chorlashdan iboratdir. Adabiyot orqali beriladigan badiiy ta'sir ko'pincha ilmiy-tahliliy nutqlardan ko'ra chuqurroq ta'sir ko'rsatishi mumkin. Chunki obrazli tafakkur va hissiy ta'sir o'quvchini tabiatga nisbatan yanada mehrlilik, mas'uliyatli bo'lishga undaydi.

Yozuvchilar tabiatni shunchaki go'zal manzara emas, balki tirik mavjudot va insoniyatning ajralmas bir qismi sifatida tasvirlaydilar. Ular tabiatga hurmat va ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga undaydi. Adabiy asarlarda ekologik muammolar o'z – o'zidan paydo bo'lmasligi, balki unga insonlarning xatti – harakatlari, mas'uliyatsizligi va ochko'zligi tufayli yuzaga

kelishi yoritib beriladi. Yozuvchilar o'z qahramonlari va syujetlari orqali tabiatning qanchalik azob chekayotganini his – tuyg'ular bilan yetkazib, kitobxonlarda tabiat uchun javobgarlik hissini uyg'otishga harakat qiladilar. Ular o'z asarlari orqali insonlarni tabiatning buzilishi natijasida kelib chiqadigan qashshoqlik, kasalliklar va madaniy qadriyatlarining yo'qolishi kabi ijtimoiy muammolardan ogohlantiradi. Tabiat bilan bog'liq muammolar faqat atrof – muhitga emas, balki inson hayotining barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatishini anglashga yordam beradi. Bilamizki, badiiy adabiyotlar odamlarning dunyoqarashini kengaytiradi, ma'naviyatini oshiradi. Tabiatga ziyon yetkazish ko'pincha insonning ma'naviy inqirozi bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Shu sababli adabiy asarlar insonlarni doim ma'naviyatli bo'lishga chaqiradi. Xulosa qilib aytganda, yozuvchilarning asosiy maqsadi – jamiyatda tabiatga nisbatan yangicha, ma'suliyatli va hurmatli munosabatni shakllantirishdir. Ular asarlarida ekologiyani ma'naviy va axloqiy qadriyatlar bilan bog'lab, ta'sirli va unutilmas obrazlar (Orol bobo kabi) yaratishga intiladilar. Zamonaviy o'zbek adabiyotining ko'pgina asarlarida tabiat bilan bog'liq muammolar syujeti tasvirlanmoqda, chunki adabiyot ilm – fan va siyosatdan farqli o'laroq, insonning qalbiga ta'sir qila oladi.

Xulosa qilinganda, ekologik muammolar bugungi davrning global masalalaridan biri sifatida adabiyotda keng aks etmoqda. Yozuvchi va shoirlar asarlarida tabiatning go'zalligi, inson va tabiat munosabatlari, ekologik falokatlarning oqibatlari yoritilib, o'quvchilar ongida ekologik mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bois ekologik muammolarning adabiy talqinini o'rganish nafaqat adabiyotshunoslik, balki ekologik ta'lim va tarbiya uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmadjonov M. Ekologiya va adabiyot. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Buell, L. The Environmental Imagination: Thoreau, Nature Writing, and the Formation of American Culture. – Harvard University Press, 1995.
3. Carson R. Silent Spring. – Boston: Houghton Mifflin, 1962.
4. Cho'lpon A. Sevgi va tabiat she'rlari. – Toshkent: Ma'naviyat, 1994.
5. Estok, S. Ecocriticism and Shakespeare: Reading Ecophobia. – London: Palgrave Macmillan, 2011.
6. G'ulom G'. Asarlar to'plami. – Toshkent: O'zbekiston, 1986.
7. Garrard, G. Ecocriticism. – London: Routledge, 2004.
8. Glotfelty, C., Fromm, H. The Ecocriticism Reader: Landmarks in Literary Ecology. – Athens: University of Georgia Press, 1996.
9. Hemingway, E. The Old Man and the Sea. – New York: Scribner, 1952.
10. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Sharq, 1996.
11. Hughes T. Collected Poems. – London: Faber and Faber, 2003.

12. Slovic, S. Going Away to Think: Engagement, Retreat, and Ecocritical Responsibility. – Reno: University of Nevada Press, 2008.
13. Vohidov E. She'rlar to'plami. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2000.